BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITILISHI

Tuxliyeva Malikaxon Turg'unovna
Taxiatosh tuman XTBga 2 – sonli o'rta maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatotsiya: *Hozirgi kunda nafaqat o'smir yoshdagi katta sinf o'quvchilariga, balki endi maktabga qadam qo'yayotgan jajji bolajonlarimiz uchun ham dars davomida foydalanish mumkin bo'lgan, ularning yoshiga, bilimiga mos ravishda ishlab chiqilayotgan metod va texnologiyalar talaygina. Mazkur maqolada matematika fanini boshlang'ich sinflarda qanday o'qitilishi kerak, qanday texnologiyalardan foydalangan ma'qul, shu kabi savollarga javob izlashga harakat qilamiz.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, matematika, ta'lim dasturi, maktab, bolalar psixologiyasi, metodika*

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug`ini jamiyatdagi demokratik o`zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta`lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta`lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta`lim tizimi hisoblanadi. Ta`lim tizimining har bir bo`g`ini alohida o`ringa ega.

Bugungi kunda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturi o'z oldiga bir muncha vazifalar qo'ygan. Unda maktab ta`limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi" talablarida "ta`lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta`lim mazmunini aniqlash, ta`lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta`lim standartlarini takomillashtirish, o`quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o`quv metodik majmualar yaratish" vazifasini hal qilish ta'kidlab o`tilgan.

Endi maqolamiz mavzusiga sekinlik bilan qaytishni boshlaymiz. Har bir o'z oldiga ma'lum bir maqsad va vazifalarni qo'yadi, bundan tashqari ma'lum bir predmetlar yoxud texnologiyalar asosida shakllanadi. Shu o'rinda bitta savol tug'iladi, matematika fanining predmeti nimalardan iborat, bunga birgalikda javob izlaymiz.

Matematika boshlang`ich ta`lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

- Matematika o`qitishdan ko`zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o`qitiladi, o`rgatiladi)

- Matematika o`qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o`rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o`quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o`rganishda izchillik ta`minlanadi, o`quv ishlariga o`quv mashg`ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta`lim mazmuni o`quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.
- O`qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o`qitish kerak) ya`ni, o`quvchilar hozirgi kunda zarur bo`lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko`nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o`quv ishlari metodikasi qanday bo`lishi kerak?
- O`qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko`rgazmali qo`llanmalar va o`quv- texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o`qitish)
- Ta`limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta`limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish).

Ushbu fanni boshlang‘ich sinflardan o‘qitilishi o‘zi nimaga kerak, bira to‘la katta sinflardan boshlab o‘tilsa bo‘lmaydi, degan savol tug‘iladi, kimdirlar ushbu savolga darrov javob bersa, ayrim o‘qituvchilarning nigohlari “yer chizishni” boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ustoz bu fan menga nimaga kerak, degan savolni bermasligiga kim kafolat bera oladi, hech kim. Bu quyidagi ma’lumotlar orqali shu savolga javob izlaymiz.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish vazifalari va bolalar bog’chasida arifmetika asoslarini tarkib toptirish, miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarni rivojlantirish o’qitishning asosiy shartidir. Har bir mashg’ulotda o‘qituvchi mavzu mazmunining asosiy masalalari va uni darsda ishlash metodikasini ochib beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, berilayotgan tavsiyalar, odatda, bolalarga berilishi kerak bo’lgan topshiriqlar, mashqlar, savollarning tipik namunalaridir. Bunday mashqlar sonini o’qituvchi sinf bilan ishlashning aniq shart-sharoitlarini hisobga olib, o’zi aniqlashi kerak.

Dastlab, bolalar ongiga elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun ularga kundalik rejim o’rgatilishi jarayonida matematik tushunchalar va iboralar shakllantiriladi. Maktabga tayyorlov gruhida bolalarni o’qitishda didaktik ko’rsatma materiallardan keng foydalanish xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko’rgazma tashkil qilish bilan bog’liq bo’lgan topshiriqlar ham namunalar sifatida qaralishi mumkin. O’qituvchi ularga o’zida bo’lgan ko’rsatma-qo’llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin. Ko’pchilik hollarda tavsiya etilayotgan og’zaki mashqlar materialini o’qituvchi turli variantlarda berishi, Ba’zan esa sinfning tayyorgarligiga qarab almashtirishi ham mumkin. O’qituvchi tavsiya etilayotgan didaktik o’yinlarga ham ijodiy yaqinlashishi kerak, bunda o’yinlarni o’tkazishda foydalaniladigan qo’llanmalarni variatlab, imkoni boricha ko’proq har xilliklar

kiritishi, har bir mashg'ulotning konkret vazifalarini hisobga olib, o'zi topgan o'yinlarni sinash maqsadida darslarda o'yinlar tashkil qilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali kichkina, hech narsani bilmaydi, deya o‘z ishiga mas'uliyatsizlarcha yodashayotgan ayrim o‘qituvchilar bor. Ular hali nihol, bu esa yelkayizga katta mashaqqatni yuklaydi. O‘z ustida ishlashni talab qiladi. Vatanimiz kelajagiga befarq bo‘lmaylik, azizlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

• Abdurahmonova N., Axmedov M., Jumayev M., 1-sinfda matematika darslari. O‘qituvchi kitobi. Toshkent 2006
• Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim —Ta'lim taraqqiyotill jurnali, Toshkent —Sharql, 1999.
• Levenberg L.Sh. va boshqlar. —Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent —O'qituvchi.